

**O‘zbekiston respublikasi oliy va o‘rta maxsus
ta’lim vazirligi
Buxoro muhandislik-texnologiya instituti
O‘zbek tili va adabiyoti kafedrası**

**“O‘ZBEK TILINING YANGILANAYOTGAN
O‘ZBEKISTON MILLIY YUKSALISHIDA
TUTGAN O‘RNI VA AHAMIYATI”**

**RESPUBLIKA MASOFAVIY ILMIY-AMALIY
ANJUMANI MATERIALLARI
2020-YIL 23-OKTABR**



BUXORO – 2020

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM
VAZIRLIGI
BUXORO MUHANDISLIK-TEXNOLOGIYA INSTITUTI
O'ZBEK TILI VA ADABIYOTI
KAFEDRASI**

**“O'ZBEK TILINING YANGILANAYOTGAN O'ZBEKISTON
MILLIY YUKSALISHIDA TUTGAN O'RNI VA AHAMIYATI”
mavzusidagi respublika masofaviy ilmiy-amaliy anjumani**

MATERIALLARI TO'PLAMI

2020-YIL 23-OKTABR



BUXORO – 2020

O'zbekiston Respublikasining "Davlat tili haqida"gi Qonuni qabul qilinganligiga 31 yil to'lganligi munosabati bilan hamda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbek tilining davlat tili sifatidagi nufuzini va mavqeyini tubdan oshirish chora-tadbirlari to'risida"gi PF-5850-son Farmonida ko'zda tutilgan "O'zbek tili bayrami kuni"ni keng nishonlash, jumladan: O'zbek tilini davlat tili sifatida nufuzini oshirish va qo'llanish ko'lamini yanada kengaytirish; Davlat tilini milliy qadriyat sifatida e'zozlash; unga nisbatan milliy g'urur hissini kuchaytirish va targ'ib etish; O'zbek tilining xalqaro mavqeyini mustahkamlash maqsadida Buxoro muhandislik-texnologiya instituti "O'zbek tili va adabiyoti" kafedrasida 2020-yil 23-oktabrda "O'zbek tilining yangilanayotgan O'zbekiston milliy yuksalishida tutgan o'rni va ahamiyati" mavzusida Respublika masofaviy ilmiy-amaliy anjumani o'tkazildi. To'plamga mazkur anjuman materiallari kiritilgan.

Tashkiliy qo'mita a'zolari:
BuxMTI ilmiy va innovatsion ishlari prorektori:
f-m.f.doktori M.Sharipov

BuxMTI "O'zbek tili va adabiyoti" kafedrasini mudiri,
falsafa fanlari doktori G.S.Yunusova

Mas'ul muharrir: BuxDU "O'zbek tilshunosligi" kafedrasini dotsenti
B.E.Qilichev
BuxMTI "O'zbek tili va adabiyoti" kafedrasini o'qituvchilari:
G.X.Istamova
Sh.F.To'xtayev

**Maqolalardagi ma'lumotlarning haqqoniyligi va imlo jihatlariga
mualliflar mas'uldir.**

- 2.Aminov M., Madvaliyev A., Mahkamov N., Mahmudov N. Ish yuritish. – Toshkent, 2000.
- 3.Mahmudov N. va bosh. Ish yuritish asoslari. – Toshkent: O‘zME davlat ilmiy nashriyoti, 2006.
- 4.Mahmudov N., Rafiyev A., Yo‘ldoshev I. Davlat tilida ish yuritish. – Toshkent, 2015.
- 5.To‘xliyev N. Ish yuritish. – Toshkent, 2017
- 6.Til –ruhimiz tarjimoni. - “Yoshlik” jurnali. 2014-yil.10-son[1]

ONA TILI DARSLARIDA INNOVATSION TEKNOLOGIYALARNING SAMARADORLIGI

Xaydarova Nigina Ganiyevna

BuxMTI “Xorijiy tillar” kafedrasining ingliz tili o‘qituvchisi

Yurtimizda amalga oshirilgan islohotlar tufayli barcha, jumladan, ijtimoiy-iqtisodiy sohalarda, shuningdek, ta’lim tizimida ham keskin o‘zgarishlar, tub yangilanishlar, innovatsiyalar yuz bermoqda. Innovatsiya (inglizcha innovation)- yangilik kiritish, yangilik demakdir. Innovatsion texnologiyalar pedagogik jarayon hamda o‘qituvchi va o‘quvchi faoliyatiga yangilik, o‘zgarishlar kiritish bo‘lib, uni amalga oshirishda, asosan, interfaol uslublardan foydalaniladi. Shu vaqtgacha an’anaviy ta’limda talaba (yoki o‘quvchi)larni faqat tayyor bilimlarni egallashga o‘rgatib kelingan edi. Bunday usul talaba (yoki o‘quvchi)larda mustaqil fikrlash, ijodiy izlanish, tashabbuskorlikni so‘ndirar edi. Endi o‘quv jarayonini yangilangan dastur va standart talablariga javob beradigan zamonaviy darslar asosida tashkil etish davri keldi. Boshqacha qilib aytganda, zerkarli darslar o‘rniga zamonaviy darslarni tashkil etishga mas’uliyat bilan yondashadigan, kasbiy bilimdon, metodik mahoratga ega, mas’uliyatli, interfaol pedagogik texnologiyani mukammal o‘zlashtirib olgan, innovatsiyalar asosida ta’limni tashkil eta oladigan o‘qituvchilarga talab oshib bormoqda. Pedagogik texnologiya va ularni ta’limda qo‘llanishiga oid bilimlar, tajriba talabalarni bilimli va yetuk malakaga ega bo‘lishlarini ta’minlaydi.

Pedagogik texnologiya masalalarini va muammolarini o‘rganayotgan ba’zi o‘qituvchilar, tadqiqotchilar va amaliyotchilarning fikricha, innovatsion texnologiya faqat axborot texnologiyasi bilan bog‘liq hamda o‘qitish jarayonida qo‘llanishi zarur bo‘lgan o‘qitishning texnik vositalari, kompyuter, proyektor yoki boshqa texnik vositalar bilan bog‘liq. Bizning fikrimizcha, pedagogik texnologiyaning eng asosiy negizi o‘qituvchi yoki talabaning belgilangan maqsaddan kafolatlangan natijaga hamkorlikda erishishlari uchun tanlagan

texnologiyalariga bog'liq. Ta'lim jarayonida, maqsad bo'yicha kafolatlangan natijaga erishishda qo'llaniladigan har bir ta'lim texnologiyasi o'qituvchi yoki talaba o'rtasida hamkorlik faoliyatini tashkil eta olsa, har ikkalasi ijobiy natijaga erishsa, o'quv jarayonida talabalar mustaqil fikrlab, ijodiy ishlab, izlanib, tahlil etib, o'zlari xulosa qila olsalar, o'zlariga, guruhga, guruh esa ularga baho bera olsa, o'qituvchi esa bularning bunday faoliyatlari uchun imkoniyat va sharoit yarata olsa, bizning fikrimizcha, ana shu – o'qitish jarayonining asosi hisoblanadi. O'quv jarayonidagi pedagogik texnologiya – bu aniq ketma-ketlikdagi yaxlitlik bo'lib, u talabaning ehtiyojidan kelib chiqqan holda bir maqsadga yo'naltirilgan va kafolatlangan natija berishiga qaratilgan pedagogik jarayondir.

Pedagogik maqsadning amalga oshishi ham kafolatlangan natijaga erishishi o'qituvchi va talabaning hamkorlikdagi faoliyati, ular qo'ygan maqsad, mazmun, ushbu vosita, shaklga ya'ni texnologiyaga bog'liqdir. O'qituvchi va talabaning maqsaddan natijaga erishishida qanday texnologiyani tanlashlari ular ixtiyorida, chunki har ikkala tomonning asosiy maqsadi aniq natijaga erishishga qaratilgan bo'lib, bunda talabalarning bilim saviyasi, guruh xarakteri, sharoitga qarab, ishlatiladigan texnologiya tanlanadi. Bularning hammasi o'qituvchi va talabalarga bog'liq. Shu bilan birga o'quv jarayonini oldindan loyihalashtirish zarur. Bu jarayonda o'quv predmetining o'ziga xos tomoni, joy va sharoitni, eng asosiysi, talabaning imkoniyati va ehtiyojini hamkorlikdagi faoliyatni tashkil eta olishini hisobga olishi kerak. Shundagina kerakli kafolatlangan natijaga erishish mumkin. Zamonaviy pedagogik texnologiyalar qo'llash jarayonida talabalar "kognitiv" o'quv maqsadlari sohasida nazariy bilimlarni oladi, "psixomotor" o'quv maqsadlari sohasida olgan nazariy bilimlarini turli mashqlarni bajarish orqali mustahkamlaydi, "affektiv" o'quv maqsadlari sohasida ularda kelajakka umidvorlik hissi uyg'onadi.

O'quv mashg'ulotlari samaradorligini oshirishda ona tili va adabiyot darslariga interfaol metodlar va ta'limiy o'yinlardan foydalanish o'quvchilarni mustaqil fikrlashga ijodiy izlanish va mantiqiy fikrlash doiralarini kengaytirish bilan bir qatorda ularni fanga bo'lgan qiziqishlarini ham orttiradi. Mashg'ulotni o'tkazish tartibi: muammo o'zi nima, degan savol asosida mavzuga kirib boriladi. Muammo bilish va bilmaslikni o'rtasi bo'lib bunda muammoning dolzarbligi va o'ziga xosligi nazarda tutiladi. Bir mavzuga oid qator muammolar olinib, undan eng dolzarblari ajratiladi. Muammoli ta'limning o'ziga xos xususiyatlari shundan iboratki, u o'quvchiga qo'yilgan muammo yechimini topish uchun ilmiy ijodiy tafakkur yuritish, jadal mantiqli fikrlash, so'z va atamalar, asar g'oyasi hamda ma'nosini o'zaro qiyoslash, o'zi uchun eng to'g'ri yechim tanlash imkoniyatini beradi. Bu texnologiya o'quvchining imkoniyatlaridan o'zaro uzviylik va uzluksizlikdan foydalanish, izchil va mantiqiy fikrlash darajasini yaxshilaydi.

O'rganuvchi subyektning o'ziga bo'lgan ishonchini mustahkamlanishiga olib keladi, xususiy intellektual iste'dod qirralarini ochishga yo'naltiradi.

Shuningdek, multimedia usuli ta'lim samaradorligini oshirishda quyidagi ta'limiy va tarbiyaviy afzalliklarga ega: axborotning xilma-xilligi: matn, lavha, bezak, nutq, musiqa, videofilmlardan parchalar, telekadrlar, animatsiyalardan foydalanishga erishiladi; "Inson — kompyuter" interaktiv muloqotning yangi darajasi ancha keng bo'ladi va undan har tomonlama axborotlarni oladi; o'quvchilarga ta'lim olishda ijodiy munosabatni uyg'otadi va bu o'z navbatida ularga ishonchni shakllantiradi; o'quvchilar tafakkurini faollashtiradi; o'quv faoliyatining ijobiy motivini hosil qiladi; o'z-o'zini namoyish etish imkonini beradi; turli fikr va mulohazalarga diqqatni jalb qilishni o'rganadi; yangi fikr-mulohazani bildirishga va o'zlashtirishga ruhan tayyor bo'ladi. Bugungi kun o'quvchisi, ularning orzu-intilishi, qiziqishlari orasida ham katta farq bor. Shundan kelib chiqib bugungi kun o'qituvchisi nafaqat mamlakatimizda, balki dunyo miqyosida ro'y berayotgan yangiliklardan vaqtida xabardor bo'lishi, o'z sohasiga doir zarur ilmiy yangiliklarni mehnat faoliyatiga tatbiq etishi, faqat darslikka tayanib qolmasdan, mavzu ko'lamini o'quvchilarga anglata bilishi, o'z ustida tinmay izlanishi, o'zida bor bilimlarni yanada kengaytira borishi lozim. Donishmandlarimiz aytganidek: «O'qitish – ikki barobar o'qish demakdir». Demak, har bir o'qituvchi-murabbiy bu o'g'itga amal qilar ekan, aslo kam bo'lmaydi. Eng katta farq esa hozirgi kun o'qituvchisining ish faoliyati innovatsion axborot texnologiya dunyosi, ilg'or pedagogik texnologiyalardan samarali foydalanish, jahon hamjamiyatida o'z o'rnini borligida.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasining "Talim to'g'risida"gi qonuni / Barkamol avlod-5. Toshkent . Sharq.
2. "Darsda hammasi bo'lmasa ham pedagogikaning asosiy qismi markazlashgan." Moskva. 1971.

HARAKAT NOMI SHAKLINI GRAFIK ORGANAYZERLAR ASOSIDA O'TISH

Sh. To'xtayev

BuxMTI "Ozbek tili va adabiyoti" kafedrasi o'qituvchisi

Bugungi kunda ilg'or ta'lim texnologiyalari jadallik bilan rivojlanib, ta'lim tizimining barcha bosqichlarida keng ko'lamda qo'llanilmoqda. Natijada talabalarning ijodiy ishlashiga, dunyoqarashining kengayishiga katta imkoniyatlar yaratilmoqda. Ta'lim tizimida ilg'or ta'lim texnologiyalarining interfaol metodlaridan foydalanish yuqori samara berayotganligini alohida ta'kidlash lozim.